

## TALABALARNING IJODKORLIK QOBILIYATI VA KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA “KEYS TEXNOLOGIYA” SINING O'RNI

**F.F. Narzilloyeva**

Buxoro davlat universiteti erkin tadqiqotchisi

Yangi O'zbekistonda inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish, oliy ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish asosiy strategik vazifalar sifatida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta'lim to'g'risidagi” qonunida yoshlarga ta'lim tarbiya berish ishlarini tubdan isloh qilish masalasi qo'yilgan. Yuksak ma'naviy madaniyat, yuksak axloqiy sifatlarga ega bo'lgan barkamol shaxsni tarbiyalash muammosi siyosiy, iqtisodiy, fuqarolik va ma'naviy-madaniy sohalarda islohotlar jadallik bilan amalga oshiriladigan bugungi kunda ayniqsa, muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish, jahon ta'limi standartlari darajasida shaxsga ta'lim berish va ijtimoiy samaradorlikni oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishga bo'lgan ehtiyojni qondirish talabi ta'lim tizimini takomillashtirishni taqozo etadi.

Ilg'or ijodkor pedagoglar tomonidan an'anaviy ta'lim texnologiyasidagi kamchiliklarga javob topish, samarali uslublarini takomillashtirish, o'quvchining aqliy mehnatini amalga oshirish usullarini izlashlari natijasida o'ziga xos ta'lim usuli vositalari yaratildiki, buning oqibatida yangicha pedagogik fikrlash tarzi vujudga keldi. Ana shu izlanishlar zamirida yangi pedagogik texnologiyaga asos solgan

pedagogik texnologiyalar yaratila boshlandi, jumladan qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarni bir tizimga solish, unga maqsadli yo'nalish berish ta'limni amalga oshirishdagi shakl va mazmun yaxlitligini ta'minlagan holda kutilishi zarur natijani olishni belgilaydi. Ta'limga testlarning joriy etilishi, diagnoz va diagnostik tahlilning kiritilishi, monitoring nazoratining yuritilishi, bilimlarni reyting tizimida baholashga o'tish, tizimga solingan nazorat turlarida o'quvchilarning ishlashi va nihoyat noan'anaviy dars shakllarining vujudga kelishi o'quv jarayonidagi an'anaviy ta'lim o'rniga vujudga kelgan yangi pedagogik texnologiyalar bo'lib, ular yangicha fikrlash tizimidagi ta'limga o'tishni taqozo etadi.

Oliy ta'lim muassasalarini asosiy vazifasi, har bir yoshning shaxsiy imkoniyatlarini rivojlantirish, ularning tashabbuskorligi va ijodkorligini kuchaytirishdir. Bunda hamkorlik pedagogikasi- bu talaba shaxsiga yo'ldir. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish ta'lim jarayoniga ijodiy yondashuv asosida amalga oshadi. Ijodiy yondashuv esa shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini to'la amalga oshirishga imkoniyat yaratadi. Shunday shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan biri – hamkorlikda o'qitish texnologiyasidir. Bunda ayniqsa, guruhlarda o'qitish, muammoli o'qitish, modulli o'qitish, individual ta'lim asosida o'qitish kabilar yuqori samara beradi.

Zamonaviy texnologiyalardan biri bo'lgan "Case-study" texnologiyasining asosiy maqsadi – turli vaziyatli, shu jumladan, pedagogik vaziyatli masalalarni hal qilish mobaynida o'quvchilarning konseptual sxema va modellaridan amaliy foydalanish malakalarini, shuningdek, muammolarni guruhiy tahlil qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini ishlab chiqarish orqali bilimlarini mustahkamlashdan iboratdir.

Bugungi kunda o'quv jarayonining o'ziga xos jihati bilim, ko'nikma va malakalarini shaxsda shakllantirishni talab qiladi, buning uchun esa iroda, diqqat, kuzatuvchanlik, fikr yuritish, xayolparastlik kabi shaxsiy sifatlarning tarbiyalanganligi zarur. Ta'limning amalga oshirish jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni kiritish quyidagilarga asoslanadi:

- ta'lim jarayonida ishtirok etuvchi o'quvchi shaxsi ustivorligini ta'minlash;

- ta'lim maqsadining natijaga erishuvini (kafolatlanganligini) amalga oshirish;
- ta'lim jarayoni boshqariluvchi jarayon ekanligidan kelib chiqqan holda uning maqsadli boshqariluviga erishish;
- ta'lim mazmunini ta'minlovchi vosita, usul shakllari texnologiyasini yagona bir tizimga keltirish.

Keyslar metodi (Case method) yoki keys-stadi (case-study), aniq vaziyatlar analizi (tahlili) metodi bo'lib, real ijtimoiy, iqtisodiy, biznes vaziyatlar ta'rifidan foydalanuvchi ta'lim texnikasi hisoblanadi. Ta'lim oluvchilardan berilgan vaziyatni tahlil qilish, muammolar mohiyatini anglash, ushbu muammolarning muqobil yechimlarini izlash va ular orasidan eng afzalini tanlash talab etiladi. Keyslar real dalilli materiallarga yoki real vaziyatga maksimal ravishda yaqinlashtirilgan ma'lumotlarga asoslanadi.

Yuqorida bildirilgan fikrlar asosida bo'lajak o'qituvchilarni ijodkorlik faoliyatiga tayyorlashda "Keys-stadi" texnologiyasini qo'llashni quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirish mumkin:

-talabalar e'tiborini masalani hal qilishda qo'llanilgan usulning universalligi, keng qamrovligiga qaratish;

-talabalar ijodiy takomillashuvni darsning maqsadi sifatida emas, balki darsda qo'yilgan vazifani yanada samarali hal qilishga qaratilgan yangi yo'l, imkoniyat sifatida qaralishi;

-talabalar o'zlari mustaqil xulosa chiqarib topadigan yangi g'oyalar ijodkorlik darslarining asosiy mahsuli sifatida qaralishi.

Bo'lajak o'qituvchilarning ijodkorlik faoliyatini rivojlantirish omillari har bir mavzu, har bir darsda o'quv faoliyatining asosi bo'lishi lozim, ijodkorlik faoliyati o'qituvchi va talaba faoliyatining barcha qirralarini qamrab olar ekan, uni samarali tashkil qilish butun ta'lim jarayonining sifatini ta'minlashga xizmat qiladi